

KREDIT MAHSULOTI PASPORTI

Kredit mahsulotining turi va nomi	Mikrokredit "Mahalla tadbirkori"
Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchiga qo'yiladigan talablar	O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan, 23 yoshga to'lgan o'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxslar.
Mikrokredit miqdori	300 mln. so'mdan oshmagan miqdorda
Mikrokredit maqsadi	O'zini-o'zi band qilgan jismoniy shaxsning faoliyatini rivojlantirish
Mikrokredit muddati	Imtiyozli davrsiz, 60 oy muddatgacha
Taqdim etish shakli	Qarz oluvchining "Asia Alliance Bank" ATBda ochilgan so'm plastik kartasiga pul o'tkazish yo'li orqali
Foiz stavkasi	12 oy muddatgacha – 21,0 %; 24 oy muddatgacha – 23,0 %; 36 oy muddatgacha – 25,0 %; 60 oy muddatgacha – 26,0 %;
Mikrokredit ta'minoti	Mikrokredit miqdorining 125 foizdan kam bo'lmagan miqdorda, bank talablariga muvofiq keladigan likvidli mol-mulk garovi.
Talab etiladigan hujjatlar	A) Shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport, ID-karta, yashash uchun guvohnoma va h.k.); B) O'zini o'zi band qilganlik to'g'risidagi guvohnoma (ro'yxatdan o'tganiga 6 oydan oshmagan bo'lishi lozim); C) Kredit qaytarilishini ta'minlovchi hujjatlar; D) Mustaqil baholovchi tashkilotning garov mulkini baholash to'g'risidagi hisoboti; E) Bankning kredit menejeri (mas'ul xodimlari) tomonidan tuzilgan garovga olinadigan mol-mulkning dastlabki monitoring dalolatnomasi mol-mulkning foto suratlari bilan.
Mikrokreditni qaytarish tartibi	Annuitet yoki differensial to'lov usulida
Qo'shimcha shartlar	- Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi yuki ko'rsatkichi 50 foizdan oshmasligi lozim; - MIB joriy qarzдорligi bo'lmashligi - Kredit byurolaridan olingan kredit tarixi ijobiy bo'lishi lozim. Bunda: so'nggi 3 yil muddatda: - 60+ 3 tagacha yo'l qo'yiladi; so'nggi 1 yil muddatdagi kredit tarixi: - 30+ 2 tagacha yo'l qo'yiladi; - Kredit ta'minoti sifatida Toshkent viloyatida joylashgan ko'chmas mulk taqdim etilganda, ayrim hududlardan (Chirchiq shahri,

Qibray tumani, Nurafshon shahri, Toshkent tumani, Zangiota tumani, Bo'stonliq tumani, Yangiyo'l shahri) tashqari hududlarda joylashgan ko'chmas mulklar garovga qabul qilinmaydi;

- Toshkent viloyatining qolgan tumanlarida ko'chmas mulk faqat shahar maqomiga ega bo'lgan yoki tuman markazi hisoblangan aholi punktida joylashgan va bank talablariga javob bergan taqdirda, kredit ta'minoti sifatida qabul qilinishi mumkin;

- Samarqand, Farg'ona, Andijon, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida ko'chmas mulk kredit ta'minoti sifatida obyekt joylashgan tuman va aholi punktidan qat'i nazar, obyekt garov ta'minotiga qo'yiladigan quyidagi belgilangan talablarga javob berganda qabul qilinadi:

- ✓ obyekt likvidli va bozor talablariga javob berishi;
- ✓ obyekt qurib bitkazilgan va yashash yoki belgilangan maqsadda foydalanish uchun yaroqli bo'lishi;
- ✓ obyekt to'liq ta'mirlangan bo'lib, jiddiy qurilish yoki ta'mirlash ishlarini talab qilmasligi;
- ✓ obyekt tegishli huquqiy va texnik jihatdan rasmiylashtirilganligi;
- ✓ obyektning garovga qabul qilishga to'sqinlik qiluvchi uchinchi shaxslarning huquqlari, taqiqlar va boshqa cheklovlar mavjud emasligi;
- ✓ obyekt undiruv qaratilgan taqdirda uni amalga oshirish imkonini beradigan xususiyatlarga va joylashuvga ega bo'lishi;
- ✓ obyektning bozor qiymati va likvidligi belgilangan tartibda tasdiqlanganligi.

- Kredit ta'minoti sifatida garovga ko'chmas mulk qabul qilinganda, ushbu mulk qarz oluvchi yoki uning yaqin qarindoshiga tegishli bo'lishi lozim;

- Kredit tashkilotlarida o'rtacha oylik to'lovi 3 mln.so'mdan oshgan joriy kredit qarzдорligi mavjud bo'lmasligi lozim (*daromadlarini, hisob raqam aylanmalarini yoki nomida mol-mulk mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilgan hollar bundan mustasno*).